

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**


**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**"KOORDINATSION BIRIKMALAR KIMYOSINING  
HOZIRGI ZAMON MUAMMOLARI"  
MAVZUSIDA XALQARO ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA  
MATERIALLARI TO'PLAMI**



**2022-yil 22-23-dekabr  
Buxoro**


### xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materialari



Dipirazolin shakli (D) pirazolin halqalarining 5-holatdagi uglerod atomlari bo‘lgan ikkita xiral markazga ega. Shunga ko‘ra (D) shaklni ikkita diastereomer, ratsemik modifikatsiya (RR, SS) va mezo-shakl (RS, SR) bilan ifodalash mumkin. Birinchi diastereomerning diatsil qismidagi metilen guruhining protonlari diastereotopik, ikkinchisida enantiotopikdir.

Sintez qilingan yangi moddalarning ahamiyatli jihatni shundaki u bis-tridentat ligand sifatida Ni(II), Cu(II) va Zn(II) atsetatlari bilan bir qator kompleks birikmalari sintezi amalga oshirildi.

Malon kislota digidrazonining spirtli eritmalari va mis(II) atsetatning suv-ammiakli eritmasi 1:2 mol nisbatda aralashtirilganda  $\text{Cu}_2\text{L}\cdot 2\text{NH}_3$  kompleks birikmasi hosil bo‘ldi:



Komplekslar piridinda erilisa, ammiak oson almashinadi va dietilefiri ta’sirida oson cho‘ktirib olinadi.

### VITAMIN B<sub>12</sub> - TABIATDA UCHRAYDIGAN ENG MURAKKAB TUZILISHLI KOORDINATSION BIRIKMA

**Qodirova Z.K., Raximova N.A.**

Buxoro davlat universiteti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada vitamin B<sub>12</sub> (sianokobalamin), uning kimyoviy tarkibi, kompleks birikma sifatidagi tuzilish formulasi, biologik ahamiyati, organizmda bu vitamin yetishmaganda kelib chiqadigan kasalliliklar va bu vitaminga boy manbalar haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so’zlar.** vitamin B<sub>12</sub>, sianokobalamin, kobalt atomi, pirrol halqa, CN guruhi.


Kobaltning eng katta biologik ahamiyatga ega bo‘lgan kompleksi - vitamin B<sub>12</sub> (sianokobalamin) dir. Vitamin B<sub>12</sub> tabiatda uchraydigan eng murakkab tuzilishga ega bo‘lgan koordinatsion birikmalardan biri. Bu burikma va unga struktura jihatdan yaqin birikmalar organizmda xilma-xil biologik vazifalarni bajaradi. Odam, hayvon organizmlari va o’simliklar uchun bu vitamin kerakli modda bo‘lib, unung kamligi pernitsioz anemiyaga olib keladi.

Kimyoviy tarkibi jihatidan B<sub>12</sub> vitamin tarkibida metall atomi kobalt, u bilan bog’langan sian (CN) guruhi bor vitamin bo‘lib, sianokobalamin deb ataladi. Sianokobalaminning asosi 4 ta

### **“Koordinatsion birikmalar kimyosining hozirgi zamон muammolari”**

pirol halqasidan tashkil topgan korfirin yadrosi bo'lib, pirrol halqalari (III va IV pirrol radikallaridan tashqari) o'zaro metin “ko'prikchalari” orqali bog'langan.

Ikkita metin guruhidagi vodorod atomlari metil radikallari bilan almashingan. Markazda kobalt atomi joylashgan bo'lib, u pirrol halqasidagi azot va CN guruhi bilan bog'langan. Pirrol halqalaridagi vodorod atomlari ham metil guruhlari, sırka va propion kislota amidlari bilan almashgan.



*Siankobalamin (B<sub>12</sub> vitamin)*

Propion kislota amidlaridan birining NH<sub>2</sub> gruhining bitta vodorodi riboza-3-fosfatdagi fosfat kislota bilan efir bog'lari orqali bog'langan izopropil spirit radikallariga almashingan. Riboza o'zining birinchi uglerod atomi orqali dimetilbenzimidazolning azoti bilan bog'langan.

3 ta pirrol halqaning azotlari va benzimidazolning azotlaridan biri kobalt atomi bilan koordinatsion bog' orqali bog'langan.

Uning strukturasini D. Xodjkin (1955yil) aniqladi va bu kashfiyoti uchun Nobel mukofotiga (1964 yil) sazovor bo`ldi.

Tabiatda vitamin B<sub>12</sub> faqat bakteriyalar bilan sintez qilinadi.

Vitamin B<sub>12</sub> organizmdagi organik birikmalarni qaytarish xossasiga va metil guruhnini o'ziga biriktirish xossasiga ega. Uning metall - uglerod bog' hosil qilish qobiliyati ajoyib. Vitamin B<sub>12</sub> adenozinuchfosfat (AUF) bilan reaksiyaga kirishganda alkilanish va Co - C (adenozin molekulasi) bog' hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan birikma Vitamin B<sub>12</sub> qatorining kofermenti deb nomlanadi. Koferment boshqa fermentlar bilan har xil organizmda ketadigan reaksiyalarni tezlatadi.

B<sub>12</sub> vitamin organizmda o'ndan ortiq reaksiyalarni katalizlovchi fermentlarning kofermenti sifatida qatnashadi.

Kobalamin avitaminozida xavfli kamqonlik rivojlanadi. Bu kasallik vaqtida oshqozon shirasida xlorid kislota miqdori juda pasayib ketadi, ba'zan umuman ajralmasligi ham mumkin. Normal tabiiy sharoitda ichak florasi mikroorganizmlari odam organizmi talabiga yetarli miqdorda kobalamin sintez qilib beradi. Bu vitaminning so'riliishi Kastel ko'rsatishicha, ichki faktor deb atalgan oshqozon shirasidagi glikoproteidga bog'liq. Kobalamin shu oqsil bilan bog'laniib, oson so'rildigan ko'rinishga o'tadi. Agar bu mukoprotein ishlab chiqarilmasa kobalamin so'riliishi izdan chiqadi va avitaminoz rivojlanadi.

Jigardan sof holda ajratib olingan B<sub>12</sub> vitaminining molekulyar og'irligi (uning tarkibidagi kristallizatsiya suvi miqdoriga qarab) 1360-1575 bo'lishi mumkin. B<sub>12</sub> vitamin to'q

### xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materialari

qizil kristall modda bo`lib, kimyoviy tuzilishining eng xarakterli belgisi tarkibida kobaltning 4,5 % miqdorda mavjud bo`lishidadir. Bu birikma tarkibida azot bilan koordinatsion bog`langan metall bo`lgan yagona vitamindir.

Kobalaminga sutkalik talab 10 – 20 mkg. Bu vitaminga eng boy manba qoramol va jo`janing jigari, shuningdek baliq mahsulotlari hisoblanadi.


### Kobalamindagi kobaltni aniqlash

*Kerakli asbob va idishlar:* pipetkalar, chinni tigellar, suv hammomi, gaz gorelkasi, lakmus qog’oz.

*Reaktivlar:* Kobalaminning 0,1% li eritmasi, kaly bisulfat kukuni, distillangan suv, o’yuvchi natriyning 10% li eritmasi, fenolftaleinning 0,1% li eritmasi, natriy atsetat kukuni, sulfat kislotaning 15% li eritmasi  $\alpha$ -nitrozo- $\beta$ -naftolning 0,5% li eritmasi, konsentrangan nitrat kislota, eritmasi  $\alpha$ -nitrozodisulfo- $\beta$ - naftolning 0,5% li eritmasi, vodorod xloridning 10% li eritmasi,  $\alpha$ -nitrozo- $\beta$ - naftolning atsetondagi 1% li eritmasi, natriy gidrofosfatning 10% li eritmasi, konsentrangan xlorid kislota.

Kobalaminning kaly bisulfat bilan qotishma hosil qilinishi vaqtida, kobalamin parchalanib, kobalt ajralib chiqadi, uni  $\alpha$ -nitrozo-  $\beta$ -naftol yoki  $\alpha$ -nitrozodisulfo- $\beta$ -naftol (1-nitrozo-2-naftol-3,6-disulfonat natriy) bilan beradigan qizil rangli kompleks tuz hosil qilish reaksiyasi yordamida aniqlash mumkin. Kimyoviy reaksiyani bajarayotgan paytda unga sirka kislotaning natriyli tuzi qo’shiladi, chunki kuchli kislotali muhit kompleks hosil bo’lishiga xalaqit berishi mumkin.

Kompleksning tuzilishini quyidagi sxema ko’rinishida tasavvur qilish mumkin (M.A.Ilinsky).



*$\alpha$ -nitrozo- $\beta$ -naftolning kompleks tuzi. (Me - metall)*

### Ishning bajarilishi

**I-variant.** 1% li kobalamindan 1 ml (yoki B<sub>12</sub> vitaminning bitta ampulasi) chinni tigelchaga quyib, suv hammomida quriguncha qizdiriladi, uning ustiga 0,5 g kaly bisulfat (KHSO<sub>4</sub>) solinadi va ochiq alanga yoki to’r ustida qotishma hosil qilinadi. Qotishma sovitilgandan keyin uni 3 ml distillangan suvda isitish yo’li bilan eritiladi. Hosil bo’lgan eritmani 10% li o’yuvchi natriy eritmasi bilan fenolftalein ishtirokida neytrallanadi. Uning ustiga 0,5 g natriy atsetat, 0,5 ml 15% li sulfat kislota va 0,5 ml 0,5% li  $\alpha$ -nitrozo- $\beta$ -naftol yoki 0,5 ml  $\alpha$ -nitrozodisulfo- $\beta$ - naftol qo’shiladi. Suyuqlik qizil rangga kiradi.

**II-variant.** 1% li kobalamindan 1 ml (yoki B<sub>12</sub> vitaminning bitta ampulasi) chinni tigelchaga yoki probirkaga quyib, ustiga 1 ml konsentrangan nitrat kislota va 3 ml konsentrangan xlorid kislota qo’shiladi, song hosil qilingan massa mo’rili shkaf ostida past ochiq alangada quriguncha qizdiriladi. Aralashma sovitilgandan keyin tigelchadagi cho’kma 1 – 2 tomchi suvda eritiladi, uning ustiga  $\alpha$ -nitrozo- $\beta$ -naftolning atsetondagi 1% li eritmasidan 1 tomchi qo’shiladi va lakmus ishtirokida kuchsiz ishqoriy muhit hosil bo’lguncha natriy gidrofosfatning 10% li eritmasidan tomiziladi. Eritmada Co<sup>+3</sup> ioni bo’lsa, qo’ng’ir ranq, agar bu ion bo’lmasa, sarg’ish-yashil rang paydo bo’ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Ergashov M.Y., Qodirova Z.Q. Biokimyodan laboratoriya mashg’ilotlari. O’quv qo’llanma. Toshkent: Muhammadi nashriyoti, 2018. -180 b.

2. Юсупов В.Г., Тошев М.Т., Парпиев Н.А. Координацион бирикмалар кимёси. Ташкент.: Университет. 1996

## КООРДИНАЦИЯ ПАРАОКСИБЕНЗАЛЬДЕГИДНОГО СЕМИКАРБАЗОНА С МОЛИБДЕНОМ

<sup>1</sup>Гулбаев Я.И., <sup>2</sup>Холмуминова Д.А., <sup>3</sup>Хамидов С.Х., <sup>4</sup>Абдуллаев А.А.

xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari

Nazarov N.I.	348	Razzoqova S.R.	111, 116, 119
Nazarov S.I.	348	Rejapova M.T.	224
Nishonov G.B.	443	Ro'zimova L.X.	121
Niyazmetov A.R.	103	Ro'zimurodov A.A.	234
Niyazmetova X.G.	301	Ro'zimurodov A.B.	86
No'monov M.A.	664, 667	Ro'zmatov I.	626
Normamatov A.S.	199	Rustamov M.K.	416
Normamatov A.S.	97, 98	Ruzimatov I.M.	362
Nurmetova D.K.	14	Ruzmetov A.Kh.	81, 96
Nurulloev M.O.	145		
Nurutdinova F.	645		
Nurutdinova F.M.	286, 291, 318		
		S	
	O		
Olimjonov A.O.	531	Sabirov R.Z.	144
Olimova M.I.	169	Sabirov V.X.	504
Omonbaeva G.B.	552	Sadikova N.A.	651
Ortiqov I.S.	212	Sadullayev X.M.	682
Otaboyev B.	354, 691	Sadullayeva S.	99, 188
	P	Saidov O.	645
Pardayev O.T.	86	Salimov F.G'	229, 231
Polvonov X.M.	686	Salimov N.	195
	Q	Salimov N.G.	87
Qodirova D.A.	84	Salimova F.A.	144
Qodirova M.X.	651	Sapayev F.	411
Qodirova Z.K.	512	Sattarov T.A.	224
Qosimov SH.	195	Savriyeva N.Q.	90
Quchqarov M.	195	Saydaliyev Y.Yu.	542
Qudratov O.S.	659	Sayfullayev I.B.	180
Quldoshev O.E.,	131	Sergey Z. Vatsadze	13
Qurbannazarova R.Sh.	144	Sevinchova D.N.	220
Qurbanova Sh.R.	103	Shakhnoza Kadirova	54
Qurbanov H.A.	445	Sharifova N.A.	107, 109
Qurbanov H.G.	416	Shodiyev D.A.	445
	T	Shukrullayev Sh.N.	357
	R	Sobirov N.	354, 691
Rajabova M.R.	144	Sulaymonova Z.A.	107, 109, 251
Rajabova Z.F.	84	Suyariyon K.D.	197
Rasulova Yu.Z.	318	Suyunova F.Sh.	135
Rasulova Yu.Z.	291		
Raximov K.M.	534	Tashpulatov Kh.Sh.	39
Raximov T.X.	731	Tatiana Shmigol	11
Raximova N.A.	512	Taxirov Y.R.	94
Raximova S.D.	121	Tillayeva D.M.	684
Raxmonov O.K.	284	To'qsanov I.P.	83, 510
Razzokova S.	188	To'lusova N.Z.	87
Razzokova S.R.	99	Toirova N.O.	169
Razzoqov H.Q.	357	Tojiboyev A.G'	212
		Tojimuhamedov H.S.	411
		Torambetov B.S.	116, 119, 133, 213
		Toshkentboyev A.S.	659
		Toshov A.	116
		Toshov A.A.	119